

молиявий қўрсаткичлари ҳақида умумий тасаввурга эга бўлиш керак. Корхонанинг стратегик молиявий ҳолатини ҳар томонлама баҳолаш қўйидагилардан иборат:

- корхона менежерларнинг стратегик фикрлашлари;
- молиявий менежерлар ташқи муҳитдаги вазият ва унинг элементларида бўлажак ўзгаришлар тўғрисида қанчалик маълумотга эга эканлиги;
- корхонада фаолият юритаётган молиявий таҳлил, самарадорлиги;
- тизим қай даражада стратегик муаммоларни ҳал қилишга ёрдам бериши.

2. Корхонанинг рақобатбардош хусусиятларини стратегик таҳлил қилиш ва мумкин бўлган ўзгаришларни олдиндан билиш имконини беради.

Диагностикада асосан молия бозори ўрганилади. Бу сизга ташқи молиявий муҳитдаги ўзгаришлар, корхонанинг молиявий фаолияти қандай омилларга боғлиқлиги, кредит ставкаси қандай ўзгариши, валюта курси, инвестицияларнинг даромадлилик даражаси, суғурта тарифлари даражаси ва бошқалар ҳақида маълумот олиш имконини беради.

Корхонанинг кучли ва заиф томонларини баҳолашда қўйидаги параметрлар орқали таҳлил қилинади: Корхонанинг ишлаб чиқаришда молиявий фаолиятини диверсификация қилиш, корхонанинг молиявий захиралари, корхонанинг молиявий стратегиясини ишлаб чиқувчи ва амалга оширишда ходимларнинг малакаси, муқобил стратегик молиявий ечимларни ишлаб чиқиш имконини берувчи корхонанинг ахборот базаси, корхона бошқарувининг ташкилий тузилмаси ҳисобланади.

### **Фойдаланилган адабиётлар**

1. Султанов, И. Инструментальные средства финансовых стратегий [Электронный ресурс] / И. Султанов // Projectimo. - 2017. - №4.
2. Тимченко А.И. Методы и инструменты разработки финансовой стратегии организации. Journal of Economy and Business, vol. 7 (77), 2021
3. Шаповал Е.В. Сущность финансового анализа // Наука XXI века. 2018. – С. 172-175.
4. <https://uzgidro.uz> “Ўзбекгидроэнерго” АЖ веб сайти

## **FOND BOZORINI TARTIBGA SOLISH MEXANIZMLARI**

*Jumaniyazov Inomjon Turaevich  
TDIU, "Moliya va moliyaviy texnologiyalar  
kafedrasi" kafedrasi dotsenti, PhD*

Bozori iqtisodiyoti sharoitida har bir sub'ektning sog'lom faoliyat ko'rsatishi, uning yashovchanligi (hayotiyligi) va raqobatga bardoshligi boshqa omillar bilan bir qatorda ko'p jihatdan o'sha sub'ekt tomonidan qay tarzda investitsion faoliyatning amalga oshirilayotganligi bilan bog'liq. Taraqqiy etgan mamlakatlarda investitsion faoliyatning amalga oshirilishi, eng avvalo,

sub'ektlarning fond bozoridagi ishtirokini nazarda tutadi. Sub'ektlarning fond bozoridagi ishtiroki esa QQBni rivojlantirish masalalariga borib taqaladi. Ayni damda O'zbekiston fond bozorini rivojlantirish bilan bog'liq masalalarni, avvalambor, fond bozori rivojlanishining hozirgi avholiga baho bermasdan, unga xos xususiyatlarni, tendensiyalarni aniqlamasdan va tegishli tahlil (iqtisodiy) ishlarini amalgalash oshirmasdan hal qilishning iloji yo'q.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shundan dalolat beradiki, samarali faoliyat ko'rsatuvchi fond bozori iqtisodiy o'sish sur'atlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillardan biridir. Rivojlangan fond bozori korxonalarga katta hajmdagi sarmoya talab qiluvchi loyihalarni moliyalashtrishda risklarni munosib baholash va diversifikatsiyalash, mablag'larni samarali jalg qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, fond bozori iqtisodiy tendensiyalarning indikatori bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu esa manfaatdor tomonlarga (shu jumladan, hukumatga) o'zining harakatlar strategiyasini ishlab chiqishga va samarali amalgalash oshirilishiga imkon beradi.

Fond bozori yaxshi rivojlanmagan mamlakatlar sarmoya jalg qilish uchun bir muncha yuqori xarajatlarga duch kelmoqdalar va bu raqbat muhitiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, iqtisodiyotning sog'lomligi to'g'risida xolis axborot beruvchi vositaning yo'qligi vaziyatni yaxshilash bo'yicha amaliy va samarali choralar qabul qilinishiga imkon bermaydi. Biroq, so'nggi o'n yillikdagi O'zbekiston kapital bozori ko'rsatkichlarining tahlili, afsuski, uning holatini ijobiy baholash uchun asos bo'la olmaydi. Bir qarashda fond bozori taraqqiyoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar mavjud: normativ-huquqiy baza yaratildi, korxonalarda korporativ boshqaruv tizimini yaxshilash va fond bozorida shaffoflikni ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ko'rildi, bozor infratuzilmasi shakllantirildi. Ammo, aksiyalar kapitallashuvining, qarz majburiyatlarini ifodalovchi qimmatli qog'ozlarning va QQB savdo hajmining mamlakat YaIM hajmiga nisbati kabi ko'rsatkichlar orqali fond bozorining ahvolini va unga xos tendensiyalarni aniqlash mumkin.

Tadqiqot natijalari milliy fond bozorida ayrim muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda. Yaqin vaqtlargacha QQB rivojlanmagan va turg'un deb baholandи va uning taraqqiyoti uchun to'siq bo'lgan ayrim muammolarni ko'rsatish mumkin: davlatning ustunligi – ham to'g'ridan-to'g'ri, ham davlat va moliya institutlari; qimmatli qog'ozlarning asosiy turi – aksiyalar uchun past likvidlik, bozordagi harakatsizlik; normativ-huquqiy bazaning nomukammalligi – bozorning professional ishtirokchilarini tomonidan tartibga solinadigan qoidalarning haddan tashqari ko'pligi (100 ga yaqin normativ hujjalari); QQB professional ishtirokchilarining va aholining moliyaviy savodxonligi darajasining sustligi.

Bizning fikrimizcha, fond bozori taraqqiyotiga to'sqinlik qiluvchi omillardan biri – bu mulk huquqlarining, xususan, investitsiyalarning yetarlicha himoya qilinmaganligi. Boshqa omillar qatorida nizolarni hal etish tizimidagi kamchiliklarni ham aytish mumkin. Natija shuki Ajlarining tashkiliy-huquqiy shakli kapitalni jalg qilish uchun samarasiz bo'lib, bank krediti korxonalar uchun tashqi moliyalashtirishning asosiy manbasi bo'lib xizmat qilmoqda.

Kapital bozorining hozirgi holati va undagi tizimli muammolar iqtisodiyotning real sektoriga uzoq muddatli va to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni, shu jumladan, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish uchun mavjud imkoniyat va salohiyatdan foydalanishga imkon bermaydi. Shu bilan birga, davlat ulushi mavjud bo'lgan korxonalar faoliyatiga davlat organlari aralashuvining yuqoriligi, ushbu korxonalarning soliq va bojxona imtiyozlariga haddan tashqari bog'liqligi, investitsiyaviy jozibadorligining pastligi, noishlab chiqarish maqsadlarida davlat korxonalari moliyaviy resurslarining yo'naltirilishi, xususiy lashtirish jarayonlarini boshqarish samaradorligining pastligi kabilar tizimdag'i asosiy muammolardandir. Shunday qilib, O'zbekistonda fond bozori rivojlanishining hozirgi holati, unga xos xususiyatlar va tendensiyalar, asosan, yuqorida bayon etilganlardan iborat. Biroq, bizningcha, ularni yetarli darajada – to'liq deb bo'lmaydi. Buning uchun qo'shimcha ravishda milliy fond bozorida «Toshkent» Respublika fond birjasining amaldagi holati hamda korporativ boshqaruv asosida fond bozorini rivojlantirish amaliyoti bilan tanishib chiqish, ularni belgilangan tartibga muvofiq ravishda tahlil qilish va ularga tayangan milliy fond bozorini rivojlantirishga asos bo'lib xizmat qiladi.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Yaqin kelajakda davlat aktivlarini boshqarish va kapital bozorini rivojlantirish sohasida davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari sifatidagi quyidagilarga alohida e'tibor qaritish maqsadga muvofiqdir: yagona davlat siyosatining maqsadli strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish; ikkilamchi QQBni jadal rivojlantirish; korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish; korxonalar ustav kapitalida davlat ulushini bosqichma-bosqich qisqartirish, xususiy lashtirishning samarali va shaffofigini ta'minlash.

2. Aholi daromadlari va muomaladagi pul massasining QQB hajmining o'zgarishlariga ta'sirining korrelyatsiya hamda regressiya tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, aholi daromadlarining ortishi QQB hajmiga teskari proporsional (ta'sir qiladi), bu holat mamlakatda aholi daromadlari aksariyati iste'molga yoki boshqa sohalarga yo'naltirilayotganligini bildiradi. Qo'shimcha ravishda shuni ham e'tirof etish kerakki, mamlakatda aholi daromadlarining fond bozorida ishtiropi cheklanganligini bildiradi, daromadlarning katta qismi iste'molga sarflanadi yoki aholi daromadlarini fond bozoriga yo'naltirishdan iqtisodiy manfaatdorligi yuqori emas yohud fond bozorining investitsion jozibadorligi sust.

3. Mamlakatimizda rivojlanayotgan korporativ boshqaruv tizimi katta hajmdagi kapital to'plash imkoniyatini yaratса, fond bozori esa iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini doimiy aktiv moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlash imkoniyatini yaratib beradi. Shu bois, biz tomondan berilgan ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalar amaliyotga joriy etilsa, amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni yanada samarali tashkil etishga ijobjiy turki bo'lar edi. Bu, o'z navbatida, respublikada milliy korporativ boshqaruv modelining rivojlanishiga, shuningdek mamlakat fond bozorining xalqaro sarmoya bozorlari tomon integratsiyalashuviga xizmat qiladi.